
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Nazarova N.B.	The Literary Representation of Women's Accomplishments and Charm in Jane Austen's Novels	319
Karimova S.S.	Connotative meaning and pragmatic interpretation in literary texts	325
Radjabova G.G.	Corpus evidence and the limits of intuition in the study of collocation	331
Adinaev O.J.	Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names	339
Muxitdinova X.S.	Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language	349
Amanov V.B.	Universal values as an object of linguocultural research in Spanish and Uzbek	358
PEDAGOGY		**378**
Kambarova D.I.	The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment	379
Allayarov T.Ya.	Developing communicative competence of public health college students using the standardized patient method	389
Silanteva E.F.	Preliminary training for ESP teachers for effective integrated teaching	396
Omonova E.B., Musoyeva A.B.	Digital revision portfolios for developing English writing skills in Uzbek secondary schools	411
Paluanova Kh.D.	The relationship between pragmalinguistic analysis and linguodidactic design in preservice English teacher education	419
Adamboyeva N.Q.	Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence	427
Alimardonov L.A.	Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people	435
Pazilova N.M., Abdulhakimova R.A.	Didactic potential and limitations of generative artificial intelligence in teaching Russian	443
Kadirova N.M., Tahirova Sh.Sh.	Stages of working with texts in Russian language classes at higher education institutions	450
Pulatova F.U.	Pragmadidactic features of teaching implicature and indirect speech acts in English language education	456
Sulaymonova M.A.	AI-Assisted Feedback in EFL Writing: Implications for Writing Accuracy and Learner Autonomy	464
Khodjieva Z.M.	Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions	489
Musayeva F.M.	The role of specialized vocabulary in developing the lexical competence of oil and gas students	498

Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence

Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna
n.adamboyeva@fdu.uz
Acting Associate Professor,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,
Independent Researcher,
Fergana State University

Annotation *This article examines age-related developmental characteristics of phonological skills in children aged 7–10 and their significance in the acquisition of reading competence. It explores the relationships between phonemic awareness, phonological memory, syllabic analysis and synthesis, phonological processing, and reading accuracy, speed, and fluency. The developmental dynamics of phonological operations in children aged 7-8 and 9-10, including increasing task complexity and changes in automaticity, are theoretically discussed. A comparative analysis addresses the development and manifestation of phonological skills and associated difficulties in typically developing children and children with dyslexia. The consistency of grapheme-phoneme correspondences and the agglutinative structure of Uzbek are considered important linguistic factors influencing phonological development. The article emphasizes the importance of comprehensive assessment based on task accuracy, processing speed, and the ability to manage increasing task complexity. This approach provides a theoretical and methodological foundation for identifying persistent phonological difficulties, distinguishing age-related developmental patterns, and assessing early dyslexia risk. The theoretical findings also inform future improvements in diagnostic criteria for assessing phonological skills among Uzbek-speaking primary school students.*

Keywords *Phonological skills, phonemic awareness, phonological memory, reading competence, decoding, reading fluency, dyslexia, phonological processing*

7–10 yoshli bolalarda yoshga doir fonologik ko‘nikmalarning shakllanishi va o‘qish kompetensiyasidagi roli

Adamboyeva Nafisa Qodirberganovna
n.adamboyeva@fdu.uz
Mustaqil tadqiqotchi,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
PhD, v.b. Dotsent,
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya *Maqolada 7-10 yoshli bolalarda fonologik ko‘nikmalarning yoshga doir rivojlanish xususiyatlari hamda ularning o‘qish kompetensiyasini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Fonemik anglash, fonologik xotira, bo‘g‘in tahlili va sintezi, shuningdek, fonologik qayta ishlash jarayonlarining o‘qish aniqligi, tezligi va ravonligi bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Tadqiqotda 7-8 va 9-10 yosh davrlarida fonologik operatsiyalarning rivojlanish dinamikasi, ularning murakkablashuvi hamda avtomatlashuv darajasidagi o‘zgarishlar nazariy jihatdan tavsiflanadi. Tipik rivojlanayotgan va disleksiyali bolalarda fonologik ko‘nikmalarning shakllanishi, namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda kuzatiladigan qiyinchiliklar qiyosiy tahlil*

qilinadi. O‘zbek tilining grafema-fonema mosligidagi izchillik va agglutinativ tuzilishi fonologik ko‘nikmalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim lingvistik omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Fonologik rivojlanishni baholashda topshiriqlarni bajarish aniqligi, tezligi va murakkablik darajasiga moslashish ko‘rsatkichlarini birgalikda hisobga olish zarurligi asoslanadi. Mazkur yondashuv o‘qish ko‘nikmalari shakllanganidan keyin ham saqlanib qolishi mumkin bo‘lgan fonologik qiyinchiliklarni aniqlash, ularning yoshga xos namoyon bo‘lishini farqlash hamda disleksiya xavfini erta baholash uchun nazariy-metodologik asos yaratadi. Shuningdek, olingan nazariy xulosalar o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun fonologik diagnostika mezonlarini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar *Fonologik ko‘nikmalar, fonemik anglash, fonologik xotira, o‘qish kompetensiyasi, dekodlash, o‘qish ravonligi, disleksiya, fonologik qayta ishlash*

Формирование возрастных фонологических навыков у детей 7–10 лет и их роль в читательской компетенции

Адамбоева Нафиса Кодирбергановна
n.adamboyeva@fdu.uz
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, и. о. доцента,
Независимый исследователь,
Ферганский государственный университет

Аннотация *В статье анализируются возрастные особенности развития фонологических навыков у детей 7-10 лет и их значение в формировании навыков чтения. Рассматривается взаимосвязь фонематического осознания, фонологической памяти, слогового анализа и синтеза, а также процессов фонологической обработки с точностью, скоростью и беглостью чтения. Теоретически характеризуются динамика развития фонологических операций в возрастных группах 7-8 и 9-10 лет, повышение их сложности и изменения степени автоматизации. Проводится сравнительный анализ формирования и проявления фонологических навыков, а также возникающих трудностей у детей с типичным развитием и дислексией. Последовательность графемно-фонемных соответствий и агглютинативная структура узбекского языка рассматриваются как значимые лингвистические факторы, влияющие на развитие фонологических навыков. Обосновывается необходимость комплексной оценки фонологического развития с учётом точности и скорости выполнения заданий, а также способности справляться с заданиями различной сложности. Предлагаемый подход создаёт теоретико-методологическую основу для выявления сохраняющихся фонологических трудностей, определения их возрастной специфики и ранней оценки риска дислексии. Полученные теоретические выводы также способствуют определению перспективных направлений совершенствования диагностических критериев оценки фонологических навыков у учащихся начальных классов, обучающихся на узбекском языке.*

Ключевые слова *Фонологические навыки, фонематическое осознание, фонологическая память, читательская компетенция, декодирование, беглость чтения, дислексия, фонологическая обработка*

7-10 yosh davri bolaning o‘qishni dastlabki egallash bosqichidan nisbatan mustaqil va ravon o‘qishga o‘tishini qamrab oladi. Ushbu yosh oralig‘ida fonologik ko‘nikmalar yo‘qolib ketmaydi yoki o‘z ahamiyatini to‘liq yo‘qotmaydi. Ularning o‘qish faoliyatidagi vazifasi o‘zgaradi. Dastlab fonemani ajratish va uni grafema bilan bog‘lash etakchi o‘rin tutsa, keyingi bosqichlarda fonologik kodni tez faollashtirish, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarni ketma-ket qayta ishlash va notanish so‘zlarni mustaqil dekodlash muhimlashadi. Shu tariqa fonologik ko‘nikmalar rivoji miqdoriy o‘sish bilan birga, ularning funktsional qayta tashkil etilishini ham qamrab oladi.

Mazkur yosh chegaralarini barcha bolalar uchun bir xil kechadigan qat’iy bosqichlar sifatida qabul qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Fonologik rivojlanish sur’ati bolaning maktabga tayyorgarligi, og‘zaki nutq darajasi, alifbo haqidagi bilimi, ta’lim sifati va o‘qish tajribasiga bog‘liq. Shu sababli, 7-8 va 9-10 yosh bosqichlari o‘rtasidagi farqlar fonologik operatsiyalarning tarkibi, bajarilish usuli va o‘qish faoliyatidagi vazifasi asosida tahlil qilinadi.

Fonologik ko‘nikma tushunchasi tarkibiga fonemik anglash, bo‘g‘in tahlili va sintezi, fonologik xotira, fonemalar ketma-ketligini saqlash hamda og‘zaki koddan tez foydalanish kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlar kiradi. Ular o‘qishning turli bosqichlarida bir xil ulushda ishtirok etmaydi. Masalan, o‘qishni endi o‘rganayotgan bola uchun so‘zni fonemalarga ajratish va har bir fonemani tegishli harf bilan bog‘lash asosiy vazifa hisoblanadi. O‘qish tajribasi ortgach, shu operatsiyalarning ongli nazoratsiz, tez va izchil bajarilishi muhim bo‘lib boradi.

Mazkur maqolada o‘qish kompetensiyasi yozma birliklarni aniq dekodlash, ularni yetarli tezlik va ravonlikda o‘qish hamda matn mazmunini tushunishni qamrab oluvchi kompleks qobiliyat sifatida talqin qilinadi. Fonologik ko‘nikmalar ushbu kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlariga bir xil darajada ta’sir ko‘rsatmaydi. Ular o‘qish aniqligi va ravonligini bevosita ta’minlasa, dekodlash jarayoniga sarflanadigan kognitiv resurslarni kamaytirish orqali matn mazmunini tushunishga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Fonologik qayta ishlash va o‘qish o‘rtasidagi munosabatning yoshga qarab o‘zgarishi besh yillik longityud tadqiqotda batafsil kuzatilgan. R. Wagner, J. Torgesen, C. Rashotte va ularning hamkasblari 216 nafar bolaning fonologik qayta ishlash qobiliyatlari, lug‘at boyligi va so‘z darajasidagi o‘qish ko‘nikmalarini maktabgacha davrdan to‘rtinchi sinfgacha har yili baholagan (Wagner R.K., et.el., 1997). Olingan ma’lumotlarda fonologik anglashdagi individual farqlar keyingi o‘qish natijalari bilan barcha tekshirilgan bosqichlarda bog‘langan. Tez nomlash va lug‘at boyligining so‘z o‘qishga munosabati dastlabki davrda kuchliroq bo‘lib, keyinchalik susaygan. Bu natija fonologik anglash o‘qishni boshlash davri bilangina cheklanmasdan, malakali o‘qishga o‘tish jarayonida ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi.

Yetti yosh atrofida bola yozma so‘zni ko‘rish orqali uning tovush tarkibini ketma-ket tiklashni o‘rganadi. Bu jarayonda fonemik tahlil, ya’ni so‘z tarkibidagi alohida fonemalarni ajratish, hamda bo‘g‘in sintezi, ya’ni ajratilgan tovush qismlarini yaxlit talaffuz birligiga birlashtirish o‘zaro muvofiq ishlashi kerak. Fonemani to‘g‘ri aniqlagan bola

uni keyingi fonema bilan o‘z vaqtida birlashtira olmasa, o‘qish uzuq-yuluq tus oladi. Natijada dastlabki sinflarda o‘qish aniqligi bilan bir qatorda tovushlarni birlashtirish sur’ati ham rivojlanish ko‘rsatkichi hisoblanadi.

7-8 yoshda fonologik topshiriqlarni bajarish ko‘p hollarda ongli nazoratga tayanadi. Bola so‘zni ovoz chiqarib yoki ichki nutq orqali bo‘g‘inlarga ajratadi, harfga mos tovushni eslaydi va hosil bo‘lgan qismlarni birlashtiradi. Bunday o‘qishda kognitiv resurslarning katta qismi dekodlashga sarflanadi. Bu holatda matn mazmunini bir vaqtning o‘zida kuzatish qiyinlashishi mumkin. So‘zni to‘g‘ri o‘qish hali o‘qish kompetentsiyasi to‘liq shakllanganini anglatmaydi; aniqlik bilan birga tezlik, ravonlik va mazmunni tushunish ham rivojlanishi zarur.

Ushbu bosqichda fonemik anglashning asosiy ko‘rinishlari so‘zning birinchi va oxirgi fonemasini ajratish, fonemalar sonini aniqlash, berilgan fonema ishtirok etgan so‘zlarni tanish, tovushlarni qo‘shib so‘z hosil qilish hamda sodda fonologik manipulyatsiyalarni bajarishda namoyon bo‘ladi. Topshiriqlar murakkablashganda bola fonologik reprezentatsiyani xotirada saqlashi va bir vaqtning o‘zida uning tarkibiy tuzilishini o‘zgartirishi kerak. Shu bois fonema tushirish, qo‘shish yoki o‘rnini almashtirish kabi vazifalar oddiy identifikatsiyadan ko‘ra yuqoriroq rivojlanish darajasini talab etadi.

Fonemik anglashning so‘z o‘qish bilan munosabati boshqa fonologik ko‘rsatkichlarga nisbatan kuchliroq ekani keng qamrovli metatahlil natijalarida ham tasdiqlangan. M. Melby-Lervag, S. Lyster va C. Hulme tomonidan 235 ta tadqiqot hamda 995 ta ta’sir ko‘rsatkichi umumlashtirilib, fonemik anglash, qofiyani anglash va verbal qisqa muddatli xotiraning o‘qish bilan munosabati qiyoslangan (Melby-Lervag. et.el., 2012). Tahlil fonemik ko‘nikmalar dastlabki so‘z o‘qish rivoji bilan eng barqaror bog‘langanini ko‘rsatgan. Qofiyani anglash va verbal qisqa muddatli xotiraning hissasi nisbatan pastroq bo‘lib, ularning ta’siri fonemik ko‘nikmalar bilan umumiy bog‘liqlik orqali qisman izohlangan.

Mazkur natijadan fonologik xotira o‘qish jarayonida ahamiyatsiz degan xulosa kelib chiqmaydi. Fonologik xotira yangi so‘zni yoki psevdoso‘zni o‘qishda hosil qilingan tovush ketma-ketligini vaqtincha saqlaydi. Bola so‘z oxiriga etguniga qadar avvalgi fonemalarni yo‘qotib qo‘ysa, bo‘g‘in sintezi buziladi va so‘zning umumiy fonologik qiyofasi tiklanmaydi. So‘z uzunligi va bo‘g‘inlar soni ortgan sari ushbu mexanizmning ahamiyati kuchayadi. Demak, fonologik xotiraning ta’siri ayniqsa notanish, ko‘p bo‘g‘inli va morfologik jihatdan murakkab so‘zlarni o‘qishda namoyon bo‘ladi.

8 yoshga yaqin davrda ko‘p bolalar sodda va tanish so‘zlarni harfma-harf dekodlashdan ularni yirikroq orfografik-fonologik birliklar orqali tanishga o‘ta boshlaydi. Bu bosqichda bo‘g‘inlar, ko‘p uchraydigan harf birikmalari va tanish morfemalar yaxlit qayta ishlanadi. Fonologik tahlil butunlay yo‘qolmaydi; u notanish so‘z, yangi grammatik shakl yoki o‘qishda ikkilanish yuzaga kelganda faollashadi. Shu tariqa fonologik ko‘nikmalar doimiy ongli operatsiyadan zarur paytda ishga tushadigan nazorat mexanizmiga aylana boshlaydi.

7-10 yoshli bolalarning o‘qish ko‘rsatkichlarini sinflar kesimida o‘rganishga qaratilgan EVALEC ma’lumotlarida so‘z va psevdoso‘zlarni o‘qishning aniqligi bilan birga reaktsiya vaqti va talaffuz davomiyligi ham hisobga olingan (Sprenger-Charolles, et.el., 2005). L. Sprenger-Charolles, P. Cole, D. Bechennec va A. Kipffer-Piquard ishtirokida ishlab chiqilgan ushbu yondashuv o‘qish rivojini faqat to‘g‘ri javoblar soni orqali baholash cheklanganligini ko‘rsatadi. Bir xil aniqlikka ega ikki bola so‘zni tanish tezligi va uni talaffuz qilish davomiyligi bo‘yicha farqlanishi mumkin. Shundan kelib chiqib, yosh dinamikasida aniqlik va tezlik alohida, ayni paytda o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi.

9-10 yoshga kelib me'yoriy rivojlanayotgan bolalarda ko'p uchraydigan so'zlarni dekodlash ancha avtomatlashadi. O'qish jarayonidagi asosiy o'zgarish har bir fonemani ongli tahlil qilishdan so'zning fonologik va orfografik qiyofasini tez faollashtirishga o'tish bilan bog'liq. Bu bolaga kognitiv resurslarni so'zni talaffuz qilishdan matn mazmuni, sintaktik munosabatlar va axborotni umumlashtirishga yo'naltirish imkonini beradi. O'qish kompetentsiyasining ushbu bosqichi ravonlik va tushunish o'rtasidagi bog'lanishning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Shu yoshda fonologik ko'nikmalar ko'proq murakkab lingvistik materialda sinovdan o'tadi. Kam uchraydigan so'zlar, ko'p bo'g'inli shakllar, qo'shimchalar ketma-ketligi va psevdoso'zlar avtomatlashgan leksik tanishga to'liq tayanish imkonini bermaydi. Bola fonemalar tartibini saqlashi, bo'g'inlarni to'g'ri birlashtirishi va natijani mavjud leksik reprezentatsiyalar bilan qiyoslashi kerak. Shu sababli, 9-10 yoshda tanish so'zlarni to'g'ri o'qish fonologik ko'nikmalar to'liq shakllanganini baholash uchun yetarli ko'rsatkich bo'la olmaydi.

Disleksiyali bolalarda 7-8 yoshda kuzatilgan fonologik qiyinchiliklar 9-10 yoshga kelib tashqi ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Muntazam mashq va o'qish tajribasi natijasida tanish so'zlarni o'qish aniqligi oshadi. Shu bilan birga, o'qish sur'atining sekinligi, ko'p bo'g'inli so'zlarda ikkilanish, psevdoso'zlarni dekodlashdagi beqarorlik va fonologik manipulyatsiya vazifalaridagi qiyinchiliklar saqlanib qolishi ehtimol. Natijada disleksiya o'qishning etarlicha avtomatlashmagani va murakkab materialda natijaning pasayishi orqali namoyon bo'ladi.

Fonologik rivojlanishni baholashda topshiriqni bajarish yoki bajara olmaslik holati bilan cheklanish etarli natija bermaydi. Bajarish aniqligi, sarflangan vaqt, xatolarning xususiyati va til materiali murakkablashganda natijaning saqlanishi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar sifatida hisobga olinishi lozim.

Fonologik ko'nikmalarning o'qish kompetentsiyasiga ta'siri o'qishning barcha ko'rsatkichlarida bir xil namoyon bo'lmaydi. Yozuvi nisbatan shaffof tillarda grafema-fonema muvofiqligini o'zlashtirgan bola so'zni to'g'ri o'qishi mumkin, lekin bu hali o'qish jarayoni to'liq avtomatlashganini anglatmaydi. O'qish aniqligi me'yoriy darajaga etganidan keyin tezlik, ritm, uzun so'zlarni qayta ishlash va matn mazmunini tushunish ko'rsatkichlari o'quvchilar o'rtasidagi farqni aniqroq namoyon etadi.

Shu sababli, 9-10 yoshda fonologik qayta ishlash samaradorligini baholashda xatolar soni, bajarish vaqti, bo'g'in sintezining barqarorligi va til birliklari murakkablashganda natijaning saqlanishi birgalikda hisobga olinishi lozim.

Turk tilida o'qishni egallash jarayoni o'rganilgan tadqiqotlarda shaffof orfografiya dastlabki bosqichda so'zlarni aniq tanib olishga qulaylik yaratishi qayd etilgan. Birinchi sinf o'quvchilarining fonologik anglash, harflarni tanish, so'z va psevdoso'zlarni o'qish, imlo, sintaktik anglash hamda eshitib tushunish ko'rsatkichlarini qamrab olgan B. Oney va A.Y. Durgunoglu tadqiqotida fonologik anglash o'qishni o'zlashtirishning boshlang'ich davrida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan (Oney and Durgunoglu, 1997). So'zni tanib olish yuqori darajaga etgach, matnni tushunishda eshitib tushunish va tilning semantik-sintaktik vositalaridan foydalanish qobiliyati ko'proq farqlovchi omilga aylangan. Demak, fonologik ko'nikmalarning o'rni yosh o'tishi bilan yo'qolmaydi, balki o'qish kompetentsiyasining umumiy tuzilishidagi vazifasi o'zgaradi.

Mazkur o'zgarishni ikki bosqichli jarayon sifatida talqin qilish mumkin. Birinchi bosqichda fonemalarni farqlash, ularni grafemalar bilan bog'lash va bo'g'in sintezini amalga oshirish o'qish aniqligini belgilaydi. Keyingi bosqichda ushbu operatsiyalarning avtomatlashuv darajasi o'qish tezligi hamda matn mazmunini tushunish imkoniyatlariga ta'sir etadi. Agar bola har bir so'zni talaffuz qilish uchun ortiqcha

vaqt va kognitiv resurs sarflasa, ishchi xotirada matnning oldingi qismini saqlash, gaplar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishni aniqlash va umumiy mazmunni birlashtirish qiyinlashadi. Shu ma’noda fonologik qayta ishlash o‘qish texnikasi bilan cheklanmay, matnni tushunish uchun zarur resurslarning taqsimlanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Fonologik anglash, o‘qish tezligi va imlo o‘rtasidagi munosabatning bir xil emasligi S. Babayigit va R. Stainthorp tomonidan turk bolalarini maktabgacha davrdan ikkinchi sinf oxirigacha kuzatish jarayonida ham namoyon bo‘lgan (Babayigit and Stainthorp, 2007). Maktabgacha davrdagi fonologik anglash keyingi o‘qish ko‘rsatkichlarini har doim ham mustaqil ravishda bashorat qilmagan, ammo birinchi va ikkinchi sinf oxirida imlo ko‘nikmasining eng barqaror uzoq muddatli korrelyatlaridan biri bo‘lib qolgan. O‘qish tezligi bilan esa verbal qisqa muddatli xotiraning aloqasi kuchliroq bo‘lgan. Ushbu natija fonologik anglashni o‘qish kompetentsiyasining barcha tarkibiy qismlarini bir xil darajada belgilovchi universal omil sifatida baholash mumkin emasligini anglatadi. Uning ta’siri vazifa turi, bolaning yoshi va orfografik tizim xususiyatlariga ko‘ra o‘zgarib boradi.

Shundan kelib chiqib, 7-10 yoshli bolalarda fonologik rivojlanishni o‘zaro bog‘langan dinamik tizim sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq. Fonemik anglash grafema-fonema munosabatlarini egallashga xizmat qilsa, fonologik qisqa muddatli xotira o‘qilayotgan birliklarni ketma-ket saqlash va birlashtirishni ta’minlaydi. Leksik bilim esa hosil qilingan fonologik shaklning ma’nosini faollashtiradi. Mazkur komponentlardan birining etarlicha shakllanmasligi boshqa komponentlarning ish yukini oshiradi. Shuning uchun ayrim bolalar so‘zni to‘g‘ri o‘qisalar ham, ularda o‘qish sur’atining pastligi va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda to‘xtalishlar saqlanishi mumkin.

O‘qishni o‘zlashtirishda qaysi fonologik birlik etakchi bo‘lishi ham yosh va vazifaning xususiyatiga bog‘liq. Indonez tili materiallarida H. Winskel, V.Widjaja tomonidan olingan natijalar o‘qishning dastlabki davrida fonema muhim funktsional birlik ekanini, uzun va affikslar ishtirokida hosil qilingan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda esa bo‘g‘inning ahamiyati ortishini ko‘rsatadi (Winskel, 2007). Tadqiqotda birinchi sinf o‘quvchilari bir yil davomida kuzatilib, ularning fonologik anglash, harflarni bilish, tanish so‘zlar va psevdoso‘zlarni o‘qish hamda imlo ko‘nikmalari baholangan. Natijalar bola doimo bitta fonologik o‘lchovga tayanmasligini, qayta ishlanadigan birlikning hajmi rivojlanish bosqichi va so‘z tuzilishiga muvofiq o‘zgarishini ko‘rsatgan.

Bu yondashuv o‘zbek tilida o‘qish kompetentsiyasini tahlil qilish uchun ham ahamiyatli. O‘zbek tilida grafema-fonema munosabatlarining nisbatan izchilligi o‘qish aniqligining erta shakllanishiga yordam beradi. Agglyutinativ so‘z yasalishi va shakl yasalishi natijasida yuzaga keladigan uzun so‘zlar esa fonemalarni ketma-ket qayta ishlash bilan birga bo‘g‘in chegaralarini tez belgilashni ham talab etadi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchi qisqa va tanish so‘zlarni xatosiz o‘qishi mumkin, lekin qo‘shimchalar zanjiri kengaygan so‘zlarda uning o‘qish sur’ati pasayishi ehtimoli saqlanadi. Shu nuqtai nazardan o‘zbek tilida o‘qish rivojini faqat fonema darajasiga yoki faqat bo‘g‘in darajasiga bog‘lash cheklangan yondashuv bo‘ladi. Fonema aniqlikni ta’minlasa, bo‘g‘in ko‘p bo‘g‘inli tuzilmalarni tez birlashtirish va talaffuz qilishda yirikroq operatsion birlik vazifasini bajaradi.

O‘zbek boshlang‘ich ta’limi metodikasida tovush tahlil-sintezi, bo‘g‘inlab o‘qishdan so‘zni yaxlit idrok etishga o‘tish, ongli, to‘g‘ri va ravon o‘qishni izchil shakllantirish masalalari K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva va Sh. Sariyev ishlarida yoritilgan (Qosimova, Matchonov, G‘ulomova va boshqalar, 2009). Ushbu metodik tizimda tovush va harf munosabatini anglash o‘qish texnikasining boshlang‘ich poydevori, ravonlik esa keyingi bosqichda erishiladigan sifat sifatida belgilanadi. Mazkur qarashlar 7-10

yoshda o‘qish ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich murakkablashishini tushuntirishda muhimdir. Ayni paytda metodik tavsiyalarni neyropsixolingvistik mexanizmlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksperimental isboti sifatida talqin qilish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ular o‘zbek tilidagi ta’lim amaliyotining ichki mantig‘ini ochib beradi va empirik tadqiqot uchun yoshga mos vazifalarni tanlashga asos bo‘ladi.

O‘qish tajribasi ortishi bilan tipik rivojlanayotgan bolalarda tanish so‘zlarni o‘qish aniqligi, sur’ati va avtomatlashuvi izchil takomillashadi. Disleksiyali bolalarda esa mazkur dinamika sekin va notekis kechishi mumkin. Muntazam mashq natijasida tanish so‘zlarni xatosiz o‘qish darajasiga erishilgan hollarda ham psevdoso‘zlar, kam uchraydigan leksemalar, ko‘p bo‘g‘inli va morfologik jihatdan murakkab so‘zlarni qayta ishlashda fonologik zaiflik saqlanib qoladi. Bunday vaziyatda o‘qish aniqligi tashqi jihatdan yaxshilansa-da, operatsiyalarni bajarish sur’ati past va kognitiv zo‘riqish yuqori bo‘lishi mumkin.

Yosh ortishi bilan disleksiyali bolalarda xatolar soni kamayishi mumkin, ammo o‘qish tezligi, topshiriqni bajarish davomiyligi, o‘zini o‘zi tuzatish holatlari va murakkab til materialida natijaning barqarorligi farqlovchi ko‘rsatkich sifatida saqlanadi. Shuning uchun 7-10 yoshli bolalarning fonologik ko‘nikmalarini baholashda mazkur ko‘rsatkichlar yosh me’yorlariga nisbatan birgalikda talqin qilinishi lozim.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, fonologik ko‘nikmalarning yoshga doir rivojlanishi uchta o‘zaro bog‘liq mezon – aniqlik, tezlik va murakkablikka bardoshlilik asosida talqin qilinadi. Aniqlik fonologik birliklarni to‘g‘ri qayta ishlashni, tezlik mazkur operatsiyalarning avtomatlashuvini, murakkablikka bardoshlilik esa yangi, uzun yoki notanish til materialida ko‘nikmaning saqlanishini ifodalaydi. Mazkur mezonlarning birgalikda qo‘llanilishi tashqi jihatdan xatosiz o‘qiydigan, ammo sekin va katta zo‘riqish bilan ishlaydigan bolalarda yashirin fonologik defitsitni aniqlash imkonini oshiradi.

Shunday qilib, 7-10 yoshda fonologik ko‘nikmalarning funktsional qayta tashkillanishi aniq dekodlashdan avtomatlashgan, ravon va mazmunni tushunishga yo‘naltirilgan o‘qishga o‘tishning asosiy psixolingvistik shartlaridan birini tashkil etadi.

References:

1. Wagner, R. K., Torgesen, J. K., Rashotte, C. A., Hecht, S. A., Barker, T. A., Burgess, S. R., Donahue, J., & Garon, T. (1997). Changing relations between phonological processing abilities and word-level reading as children develop from beginning to skilled readers: A 5-year longitudinal study. *Developmental Psychology*, *33*(3), 468–479.
2. Melby-Lervåg, M., Lyster, S. A. H., & Hulme, C. (2012). Phonological skills and their role in learning to read: A meta-analytic review. *Psychological Bulletin*, *138*(2), 322–352.
3. Sprenger-Charolles, L., Colé, P., Bechennec, D., & Kipffer-Piquard, A. (2005). French normative data on reading and related skills from EVALEC, a new computerized battery of tests (end Grade 1, Grade 2, Grade 3, and Grade 4). *European Review of Applied Psychology*, *55*(3), 157–186.
4. Oney, B., & Durgunoglu, A. Y. (1997). Beginning to read in Turkish: A phonologically transparent orthography. *Applied Psycholinguistics*, *18*(1), 1–15.
5. Babayiğit, S., & Stainthorp, R. (2007). Preliterate phonological awareness and early literacy skills in Turkish. *Journal of Research in Reading*, *30*(4), 394–413.

6. Winskel, H., & Widjaja, V. (2007). Phonological awareness, letter knowledge, and literacy development in Indonesian beginner readers and spellers. *Applied Psycholinguistics*, *28*, 23–45.
7. Qosimova, K., Matchonov, S., G'ulomova, X., Yo'ldosheva, Sh., & Sariyev, Sh. (2009). *Ona tili o'qitish metodikasi: Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik*. Noshir.